

Izoh: 1. 1 kredit 30 akademik soatni tashkil qiladi.

2. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari tanlov fanlar blokining soatlari hisobiga (tanlov fanlarini o'zlashtirish sharti bilan), harbiy yig'in esa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda ushbu blokdan mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanligi va harakatchanligini ta'minlovchi fanlar institut Kengashi qarori bilan belgilanadi.

3. Kurs loyiha, kurs ishlari uchun talabaga tegishli fanning mustaqil ta'lim soatlaridan 30 akademik soatni ajratgan holda 1 kredit beriladi.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi muddatlari tarkibiga bitiruv malakaviy ishini himoya qilish ham kiradi.

5. O'quv rejaiga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari institut hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

6. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarining malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va muassasalarda 2, 3-8 semestrlarda o'tkaziladi. Amaliyot 3-8 semestrlarda 4+2 shaklida, ya'ni haftaning 4 kunida nazariya va amaliy ta'lim, 2 kunida malakaviy (pedagogik) amaliyot tartibida amalga oshiriladi. 3-8 semestrlarda mutaxassislik fanlarining sillasularida mustaqil ta'lim mazmuni joriy semestrdagi amaliyot dasturi mazmuniga mos kelishi va bir-birini to'ldirishi, talabalarining amaliyoti mustaqil ta'lim topshirig'ini bajarish uchun asos sifatida xizmat qilishi lozim.

*1-kurs: 2-semestrdagi malakaviy (o'quv-tanishuv) amaliyoti uchun jami 4 kredit ajratiladi.

*2-kurs: 3-4-semestrlarda 4+2 shaklidagi amaliyot uchun har semestrga 5 kreditdan jami yillik 10 kredit va 4-semestrdagi malakaviy (o'quv-tanishuv) amaliyoti uchun jami 1 kredit ajratiladi.

*3-kurs: 5-6-semestrlarda 4+2 shaklidagi amaliyot uchun har semestrga 5 kreditdan jami yillik 10 kredit va 6-semestrdagi malakaviy (pedagogik) amaliyoti uchun jami 1 kredit ajratiladi.

*4-kurs: 7-8-semestrlarda 4+2 shaklidagi amaliyot uchun har semestrga 5 kreditdan jami yillik 10 kredit ajratiladi.

7. Jismoniy tarbiya va sport fani fakultativ kurs sifatida talabalarining ixtiyoriy tanlovi asosida sport seksiyalarida tashkil etiladi.

8. O'quv reja institut o'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil "29" 08" dagi 1 -son yig'ilishida ma'qullangan va institut Kengashining 2023 yil "30" 08" dagi 1 -sonli yig'ilishida tasdiqlangan.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	120	1-8	
*Amaliyot	6	2, 3-8	
Attestatsiyalar	22	1-8	
Yakuniy davlat attestatsiyasi	4	8	
Ta'tillar	36	1-8	
Fanlarni tanlash uchun ro'yxatdan o'tish	8	1,3,5,7	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish yoki ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi
GPA ko'rsatkichini hisoblash	8	1-8	
Jami	204		

SamDChTI o'quv ishlari bo'yicha
prorektori



F. Ro'ziqulov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



A. Jo'raqulov

Sharh tillari fakulteti dekani



D. Djurayev

Kadrlar buyurtmachisi:

Samarqand viloyati Maktabgacha va
maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i





Sh. Sultanov